



68. Nostandart shakllarning yuzi

Yondosh mavzu:
yog'och.

Ko'pburchak, ko'pburchakning
yuzi, bo'lak.




1. Rasmdagi qaysi daraxtning yog'ochi ekanligini aniqlang.




$460 + 130 \cdot 4$	$800 - 20 \cdot 12$	$31 \cdot 20 - 280$	$720 : 9 + 170$
Eman	Olcha	Qayin	Yong'oq

2. Taxtadan uchburchak tokcha qirqish kerak.
Bu tokchani yuzi qanday bo'ladi?




3. Bu shakllarning yuzini qanday topish mumkinligini o'ylab ko'ring.



68. Nostandart shakllarning yuzi



4. Bu uchburchakni daftaringizga ko'chirib olib, yuzini toping.



5. O'ylab ko'ring. Bu shakllarning yuzini qanday qilib topish mumkin?

- a) shkaf oynasining yuzi;
- b) yog'och eshikning yuzi;
- d) tortma old devorining yuzi;
- e) shkaf barcha old devorining yuzi.



6. Bitta katta daraxtdan 58 kg qog'oz olinadi. Taroziida kichik va katta daftarning vaznini o'lchang. Bu daraxtdan nechta har xil daftar tayyorlash mumkin?



7. Hisoblashlar to'g'ri bajarilganini tekshiring.

$$780 - 90 \cdot 6 = 340$$

$$48 - 24 : 6 = 4$$

$$19 \cdot 10 + 340 : 5 = 268$$

$$30 - 12 : 4 = 27$$



8. 80 kilogramm makulatura bitta daraxtni kesilishdan saqlab qoladi. 7 ta o'quvchi 5 kilogrammdan, yana uchta 9 kilogrammdan makulatura olib kelishdi. Bitta daraxtni qutqarib qolish uchun qolgan o'quvchilar yana qancha makulatura olib kelishi kerak?


68. Nostandart shakllarning yuzi



9. O'rmonchi va uning yordamchisi yumaloq yalanglikdagi daraxtlarni sanashi kerak. Ular bu yalanglikning har xil joyidan, lekin bir tomonga qarab yurib borishyapti. O'rmonchi uchun yettinchi bo'lgan daraxt uning yordamchisi uchun yigirmanchi bo'ldi, yordamchi uchun yettinchi bo'lgan daraxt esa o'rmonchi uchun 93-bo'ldi. Bu yalanglikda nechta daraxt bor ekan?



10. Kompleks masalani yeching.
Duradgor tokcha yasash uchun chizma tayyorlab oldi.
- Har bir detalning yuzi qanday?
 - Bu tokchani yasash uchun qancha material kerak?
 - Uzunligi 28 dm, eni 20 dm bo'lgan polkaga quyida berilgan taxta yetadimi?



11. Hisoblang. Javoblarni o'sish tartibida joylashtirsangiz, qaysi daraxtning yog'ochi kamalak rangida ekanini bilib olasiz.

A	$90 - 9 \cdot 3$
V	$60 - 36 : 6$
I	$64 + 39 : 3$
K	$75 - 8 \cdot 2$
L	$27 + 5 \cdot 8$
P	$80 - 26 : 13$
T	$5 \cdot 9 + 45$
E	$79 - 7 \cdot 5$

